



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI KADASTR AGENTLIGI HAY’ATI YIG‘ILISHNING BAYONI

2025-yil “26” fevral

No2/2025

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: F.J. Pulatov – Kadastr agentligi direktori
Ishtirok etdi: X. Shukurov – Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi
Qatnashdilar: Hay’at a’zolari, markaziy apparat boshqarmalari va mustaqil bo‘linmalari boshliqlari

KUN TARTIBI:

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.**
- 2. Kadastr agentligiga 2024-yil davomida “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijro holati haqida.**
- 3. Kadastr agentligi markaziy apparatida 2024-yil davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida.**
- 4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida.**
- 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmonida Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash haqida.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

(Pulatov, Abdullayev, Mirmaksudov, Abdullayev, Valiyev, Sultanov, Shoniyazov, Pulatov)

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tashkil etilgan paytdan boshlab yer, kadastr va geodeziya sohasida yangicha formatda va samarali ish olib borilmoqda.

I. Yer maydonlarini hisobga olishda amalga oshirilgan ishlar

2025-yilning 1-yanvar holatiga respublikaning jami **44,9 mln gektar** yer maydonidan **42,3 mln gektari (1,9 mln.ta)** yoki **94 foizi** “UZKAD” tizimida **elektron**



xaritasi yaratilib, **41,8 mln gektari 1,6 mln.ta** yerdan foydalanuvchilar kesimida kadastr yig‘ma jildlari shakllantirilgan holda **davlat ro‘yxatidan** o‘tkazildi.

Jumladan:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan **24,1 mln gektar (1 443,6 mingta)** yerlarning elektron xaritasi yaratilib, **23,8 mln gektari (1 222,9 mingta)** davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi;

- suv fondi toifasidagi **1 056,6 ming gektar (33 174 ta)** yerlarining elektron xaritasi yaratilib, **1 026,9 ming gektari (28 679 ta)** davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi;

- o‘rmon fondi toifasidagi **11,1 mln gektar (3 724 ta)** yerlarining elektron xaritasi yaratilib, **11 mln gektari (3 314 ta)** davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi;

- tabiatni muhofaza qilish va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik **4,2 mln gektar (10 210 ta)** yerlarining elektron xaritasi yaratilib, **4,2 mln gektari (6 874 ta)** davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi;

- **1,5 mln gektar (21 568 ta)** zaxira yerlarining elektron xaritasi yaratilib, **1,5 mln gektari (18 323 ta)** davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Bundan tashqari, huquqiy hujjatlari to‘liq bo‘lmagan **0,2 mln gektar** yer uchastkalaridan haqiqatda foydalanib turgan **247,9 ming ta** subyekt **“foydalanuvchi”** sifatida hisobga olindi.

Shundan, qishloq xo‘jaligi **131,7 ming gektar**, o‘rmon fondi **7 ming gektar** va sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari **35 ming gektarni** tashkil etadi.

II. Bino va inshootlarni hisobga olishda amalga oshirilgan ishlar

2025-yilning 1-yanvar holatiga kadastr bazasida hisobga olingan ko‘chmas mulk obyektlari soni **8 548,3 mingta**, shundan yakka tartibdagi turarjoylar **6 281,2 mingta**, noturar joylar **692,6 mingta**, ko‘p qavatli uylardagi kvartiralar **1 574,5 mingta** va ushbu ma‘lumotlar soliq organlariga onlayn taqdim etib borilmoqda.

Avval hisobga olinmagan **181,7 mingta** qo‘shimcha obyekt, **2,3 mingta** obyektida qo‘shimcha qurilmalar aniqlanib, byudjetga **155,8 mlrd so‘m** qo‘shimcha soliq hisoblandi.

III. Geodeziya va kartografiya yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar

85 ta geodeziya punktlari tekshirildi, **1 774 ta** geodezik o‘lchovlar bajarildi, **114,2 ming kv.km** maydonda aerofotosuratga olish ishlari bajarildi, **103,8 ming kv.km** maydonning ortofotoplanlari va **70,5 ming kv.km** maydonning topografik xaritalari yangilandi, **1 782,2 km** maydonda nivelirlash ishlari bajarildi, **64,6 mingta** geografik obyektlar nomlari davlat ekspertizasidan o‘tkazildi, **36,6 ming kv.km** topografik xaritalar chop etildi va **91,7 ming kv.km** maydonning topografik xaritalari nashrga tayyorlandi.



IV. Yer, kadastr va geodeziya nazorati bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

1. Amalga oshirilgan yer va kadastr nazorati natijasida **66 109 ta** holatda **9 462,3 gektar** yerni o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari aniqlandi, shundan:

41 972 ta (*4 472,2 gektar, 63 foiz*) qonunbuzarlik holatlari berilgan yozma ko'rsatmalar natijasida ixtiyoriy bartaraf etildi;

21 459 ta (*4 654,1 gektar*) holatda o'zboshimchalik bilan egallangan yerlarni qaytarish va ularda qurilgan imoratlarni buzdirish bo'yicha **sudlarga da'vo arizalari** kiritildi;

jinoyat alomatlari aniqlangan **2 146 ta** holatda (*352,4 gektar*) to'plangan materiallar prokuratura organlariga kiritildi.

2. Berilgan yangi vakolatlardan samarali foydalangan holda **41 708 ta** yer va kadastrga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanildi.

3. Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **326,8 mlrd so'mlik** ishlar ekspertizadan o'tkazildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyatiga oid **185 ta** texnik loyiha (ishlar dasturlari), **147 ta** geodeziya va kartografiya ishlarining yakuniy texnik hisobotlari hamda **27 ta** kartografiya mahsulotlari ekspertizadan o'tkazildi.

V. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarilishi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyati uchun kadastr idoralari tomonidan **221 842 ta 13 599,2 gektar** yer uchastkalari "Yerelektron" tizimiga kiritildi.

Shundan vakolatli idoralar tomonidan:

90 073 ta 3 800 gektar yer uchastkalari rad etildi;

103 480 ta 8 184,7 gektar yer uchastkasiga ijobiy xulosa berilib, auksionga chiqarildi.

"Yerelektron" AATda **28 289 ta 1 614,5 gektar** yer uchastkalari vakolatli tashkilotlar tomonidan kelishish jarayonlari davom etmoqda.

VI. Qishloq xo'jaligi yerlarini elektron tanlovga chiqarilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi PQ-373-son qaroriga asosan dehqon xo'jaligi uchun **253 655 gektar** past hosilli paxta-g'alladan bo'shagan yerlarni 2022 – 2024-yillar davomida tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish belgilangan.

Hokimliklar qaroriga asosan **261 096 gektar** (*103 %*) yerlar zaxiraga qaytarilgan.



Kadastr idoralari tomonidan **2 002,5 ming** gektar (*498 ming gektar suvli*) zaxira yerlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

“O'zdavyerloyiha” tomonidan **875 208 ta 782 052 gektar** (*dehqon xo'jaligi uchun 865 728 ta 271 382 gektar*) yer uchastkalari tanlovga chiqarilgan.

Auksionda **841 891 ta 614 843 gektar** (*dehqon xo'jaligi uchun 835 172 ta 250 898 gektar*) tanlov g'olibi aniqlangan.

“O'zdavyerloyiha” tomonidan tanlov g'olibi bilan tuzilgan **825 632 ta 612 355 gektar** (*dehqon xo'jaligi 818 896 ta 245 048 gektar*) ijara shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun kadastr idoralariga yuborilgan.

Shundan, Davlat kadastrlari palatasi tomonidan:

822 967 ta 609 510 gektar (*dehqon xo'jaligi 816 312 ta 244 320 gektar*) ijara shartnomalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan;

2 566 ta 2 648 gektar (*dehqon xo'jaligi 2 486 ta 656 gektar*) ijara shartnomalarda kamchiliklar bo'lganligi sababli rad etilgan;

99 ta 197 gektar (*dehqon xo'jaligi 98 ta 72 gektar*) ijara shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligining 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Direktor o'rinbosarlari (T.Abdullayev, A.Abdullayev, M.Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilma rahbarlari Agentlikning 2025-yil I yarim yillik uchun belgilangan ko'rsatkichlar so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

2. Kadastr agentligiga 2024-yil davomida “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijro holati haqida.

(Pulatov, Abdullayev, Mirmaksudov, Sultanov, Babadjanov, Ergeshov, Yuldashev, Abdullayev, Shoniyazov, Pulatov)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablaridan kelib chiqib, Kadastr agentligi tomonidan 2024-yil davomida “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan quyidagilar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi organlarining vazifalarini amalga oshirish, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minlash maqsadida Kadastr agentligiga 2024-yilda **“ijro.gov.uz”** tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **jami 562 ta** topshiriqlari kelib tushgan. Mazkur **562 ta** topshiriqlarning **499 tasi** belgilangan



muddatlarda ijrosi to'liq ta'minlangan bo'lsa, **63 ta** topshiriqlar ijro muddatidan o'tkazib bajarilgan.

Ushbu **562 ta** topshiriqlarning **402 tasi 54 ta** qarorga, **61 tasi 23 ta** farmonga, **1 tasi 1 ta** farmoyishga va **98 ta** topshiriqlar Davlat rahbari huzurida o'tkazilgan hamda hududlarga tashriflari davomida tuzilgan **46 ta** bayonlarga to'g'ri keladi.

Agentlikka kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining barcha hujjatlari ijrosini ta'minlash yuzasidan ijrochilarga tezkor yetkazilishi, nazorat bandlari va topshiriqlarda aniq mexanizmlar, muddatlar va mas'ullar belgilanishi bo'yicha Agentlik direktorining buyrug'i va nazorat-rejalari tasdiqlanib, doimiy nazoratga olinishi ta'minlandi.

Shu bilan birga, ushbu topshiriqlarning mohiyati va ahamiyatini hamda ularni amalga oshirish yuzasidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni tushuntirish maqsadida Kadastr agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali tushuntirish ishlari olib borildi.

Bundan tashqari, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olingan topshiriqlar ijrosi Vazirlar Mahkamasida "kunbay" tahlil qilib borilmoqda. Tahlillar natijalari bo'yicha ijro intizomini ta'minlashda yo'l qo'yilgan tizimli kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari belgilanayotganligi, olib borilayotgan sa'y-harakatlar va qayta-qayta ogohlantirishlarga qaramasdan, ayrim mutasaddi rahbarlar tomonidan topshiriqlar ijrosi yetarlicha tashkil etilmayotganligi, shuningdek, ishni to'g'ri rejalashtirmaslik va barvaqt tashkil etmaslik natijasida topshiriqlarning ijrosi ta'minlanmasdan qolayotganligi qayd etilgan.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligi direktorining o'rinbosari T. Abdullayevning Agentlikning 2024-yil davomida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijro holati haqida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Direktor o'rinbosarlari (T. Abdullayev, A. Abdullayev, M. Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilma rahbarlari:

topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazorat va hisobdorlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat'iy amal qilgan holda tashkil etsin;

"Ijro.gov.uz" tizimida ijro muddati 2025-yil I va II choraklariga belgilangan topshiriqlar bajarilishini kamida besh kun oldin bajarish choralari ko'rsin.

Bunda, ijroga mas'ul xodimlar tomonidan ijro muddati buzilgan taqdirda qonun hujjatlariga muvofiq qat'iy intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi haqida ogohlantirilsin.

3. Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (D.Shoniyazov):



“Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijrosini kunbay ishlab chiqilgan kalendar grafiklari asosida tashkil etsin;

har hafta dushanba kuni Agentlik rahbari huzurida ijro intizomi bo‘yicha o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda muddati yaqinlashayotgan har bir topshiriq yuzasidan mas‘ul ijrochilar hisobotini tanqidiy eshitalishi va muhokama qilinishi ta‘minlash maqsadida kun tartibiga masala kiritib borsin.

3. Kadastr agentligi markaziy apparatida 2024-yil davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida.

(Pulatov, Shoniyazov, Abdullayev, Mirmaksudov, Valiyev, Pulatov)

Kadastr agentligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, Tadbirkorlar virtual ofisi, Bosh prokuratura va Xotin-qizlar ishonch telefonlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki boshqa tashkilotlar orqali keluvchi, shuningdek, Agentlikning “Ishonch telefoni” orqali 2025-yilning 1-yanvar holatiga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi.

Agentlik kelib tushgan jami **16 331 ta** murojaatlarning **13 223 tasi (80,9 foizi)** qanoatlantirilgan bo‘lsa, **2 939 tasi (17,9 foizi)**ga umumiy tushuntirish berish orqali ko‘rib chiqilgan va **162 tasi (1,0 foizi)**ga rad javobi berilgan, **7 ta** murojaat ko‘rib chiqish jarayonida.

Kadastr agentligi va hududiy boshqarmalariga o‘tgan davr mobaynida **Prezident virtual qabulxonasi** orqali jami **9 837 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar hududlar kesimida ko‘rib chiqilganda, eng ko‘pi **Surxondaryo viloyatiga (1 339 ta)**, **Qashqadaryo viloyatiga (1 168 ta)**, **Samarqand viloyatiga (1 120 ta)** va **Toshkent viloyatiga (1 031 ta)**, murojaat kelib tushgan. Shuningdek, Davlat kadastrlari palatasi va hududiy boshqarmalariga jami **21 mingdan ziyod** murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar to‘liq ijobiy hal etilishi hududlar kesimida ko‘rib chiqilganda, eng kami **Toshkent shahrida (38 ta yoki 9,1 foiz)**, **Qashqadaryo viloyatida (162 ta yoki 14.1 foiz)** va **Navoiy viloyatida (55 ta yoki 22.1 foiz)** ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Muddati buzilib yopilgan va 30 kundan kechiktirib yopilgan murojaatlarni tahlil qilganimizda, eng ko‘pi **Samarqand viloyatida (107 ta yoki 9,8 foiz)**, **Toshkent shahrida (15 ta yoki 3,6 foiz)**, **Surxondaryo viloyatida (13 ta yoki 1.0 foiz)**, **Toshkent viloyatida (10 ta yoki 1.0 foiz)** Davlat kadastrlari palatasi va hududiy boshqarmalari bilan birgalikda (**23 ta**) ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Agentlik tizimiga kelib tushgan murojaatlarning **1 118 ta** yoki **11,4 foizi** takroriy murojaatlarni tashkil etib, hududlar kesimida ko‘rib chiqilganda, eng ko‘pi Samarqand viloyatida (**230 ta**), Surxondaryo viloyatida (**189 ta**), Qashqadaryo viloyatida (**151 ta**), Xorazm viloyatida (**112 ta**), Davlat kadastrlari palatasi va hududiy boshqarmalari bilan birgalikda (**1554 ta yoki 8,6 foiz**) ni tashkil etadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari orqali Agentlik va Davlat kadastrlari palatasiga kelib tushgan jami **38 870 ta** murojaatlar yo'nalish kesimida tahlil qilinganda,

- Yer uchastkalari, bino va inshootlarga kadastr hujjatlarini tayyorlash – **16 517 ta**

- Yer maydonini o'zboshimcha egallab olish, noqonuniy qurilish – **6 473 ta**

- Yer maydoni ajratish (qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik) – **1 222 ta,**

- Kadastr xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan – **3 941 ta**

- Kadastr ma'lumotlar bazasi bilan bog'liq holatlar – **8 029 ta**

- Boshqa masalalar bo'yicha esa – **2 688 ta** ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kadastr agentligining qisqa **1097 – Ishonch telefoniga** 2025-yil 1-yanvar holatiga, jami **22 503 ta** qo'ng'iroq qabul qilinib, **14 164** tasiga mas'ul xodim tomonidan huquqiy tushuntirishlar berildi, **6 884 ta** murojaat ko'rib chiqish uchun hududiy boshqarmalarga yuborildi hamda **1 455 ta** murojaat qo'shimcha o'rganish talab qilangani uchun edo.ijro dasturi orqali ijroga qaratildi.

edo.ijro dasturi orqali kelib tushgan murojaatlarning **1 106** tasi yoki 76,0 foizi qanoatlantirilgan bo'lsa, **339 tasi** yoki 23,4 foiziga tushuntirish berilgan, **10 ta** murojaat rad etilgan.

Kadastr agentligiga **to'g'ridan-to'g'ri jismoniy va yuridik shaxslar yoki boshqa tashkilotlar orqali** tomonidan ariza orqali qilingan murojaatlarning yillik holati tahlil qilindi. Yil boshidan, jismoniy shaxslardan – **4 025 ta** va yuridik shaxslardan - **747 ta** jami **4 772 ta** murojaat kelib tushgan. Shundan, **3 826 ta** yoki **81,3 foiz** hal etilgan, **680 ta** yoki **14,4 foiziga** tushuntirish berilgan, **61 ta** rad javobi berilgan bo'lsa, **139 ta** murojaat ko'rib chiqish jarayonida.

2024-yil o'tgan davr mobaynida, Kadastr agentligi, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda kamchiliklar va qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan rahbar hamda mas'ul xodimlarga nisbatan **32 ta jarima, 3 ta ma'muriy, 2 ta mehnat shartnomasini bekor qilish va 73 ta hayfsan,** jami **110 ta intizomiy jazo choralari** qo'llanilgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Markaziy **televideniya va radioefirlarda 156 ta, gazeta va jurnallarda 62 ta, elektron OAVlarda 185 ta hamda tashkilotning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida 581 ta, jami 988 ta materiallar** ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borildi.

Kadastr agentligi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan reja-grafikka asosan, Agentlik direktori va o'rinbosarlari tomonidan, yil davomida **20 ta** hududda **sayyor qabullar** tashkil etildi. Ushbu sayyor qabullar davomida, **500 dan** ortiq fuqaro va tadbirkorlar ishtirok etib, **406 tasi** ko'rib chiqish uchun ijroga qaratildi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay'at yig'ilishi **qaror qiladi:**



1. Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i D.Shoniyazovning Kadastr agentligi markaziy apparatida 2024-yil davomida murojaatlar bilan ishlash holati haqida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (D.Shoniyazov) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-yanvardagi 16-son Rayosat yig'ilish bayoni va Iqtisodiyot va moliya vazirligining murojaatlar bilan ishlash bo'yicha 7/2-8-sonli chora-tadbir rejasi asosida:

uch kun muddatda 2-bandida ko'rsatilgan kamchiliklar yuzasidan chora-tadbir dasturi ishlab chiqsin hamda 2025-yil davomida Markaziy apparat tuzilma rahbarlari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlarida ushbu topshiriqlar ijro etilishi yuzasidan doimiy nazoratni ta'minlasin;

mazkur rejaning 6 va 7-bandlarida ko'rsatilgan "murojaatlar bilan ishlash bo'yicha yagona onlayn platformasi" yuzasidan berilgan topshiriqlar ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari:

joriy yil davomida Agentlikka va yuqori turuvchi organlarga beriladigan hisobotlardagi ma'lumotlari to'g'riligi va sifatligi hamda belgilangan muddatlarda taqdim etilishiga shaxsan mas'ul ekanliklari ko'rsatib o'tilsin;

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablaridan kelib chiqib, murojaatlarni ko'rib chiqishda belgilangan muddatlarning buzilishiga yo'l qo'ygan Agentlikning **Samarqand, Toshkent, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahri boshqarma boshliqlari**, shuningdek, takroriy murojaatlari bilan ishlashga yetarli e'tibor qaratmagan **Agentlikning Samarqand, Surxondaryo, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari boshqarma boshliqlari** qat'iy intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi haqida ogohlantirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida.

(Pulatov, Abdullayev, Mirmaksudov, Shoniyazov, Sultanov, Ergeshov, Imomkulov, Axmedov, Isametdinov, Atamuratov, Valiyev, Pulatov)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Hay'ati yig'ilishining 2024-yil 27-fevraldagi 1/2024-sonli hamda 22-apreldagi 2/2/2024-sonli bayonlari bilan Kadastr agentligining 2024-yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlangan bo'lib, mazkur ish rejaga asosan 5 ta yo'nalishda 101 ta banddan iborat chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu ish rejaning 101 ta banddagi chora-tadbirlar ijrosi to'liq ta'minlanib, belgilangan tartibda nazoratdan olinishi ta'minlangan.

Kadastr agentligi Hay'ati yig'ilishining 2024-yil 25-iyuldagi 4/4-sonli hamda 13-avgustdagi 5/2024-sonli bayonlari bilan Kadastr agentligining 2024-yil II yarim



yillik ish rejasi tasdiqlangan bo‘lib, mazkur ish rejaga asosan 5 ta yo‘nalishda 129 ta banddan iborat chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Ushbu ish rejaning 127 ta banddagi chora-tadbirlar ijrosi to‘liq ta‘minlanib, belgilangan tartibda nazoratdan olinishi ta‘minlangan. Qolgan 2 ta banddagi chora-tadbirlar asosli sabablarga ko‘ra ijro muddati uzaytirilib, ijro jarayonida.

Shuningdek, Kadastr agentligi markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda Agentlikning joriy yil I yarim yilligiga mo‘ljallangan ish rejasi loyihasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq 6 ta yo‘nalishda 169 ta banddan iborat chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutildi.

Agentlik ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mas‘ullarga tegishli topshiriqlar belgilab berildi.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala bo‘yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay‘at yig‘ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligi direktori o‘rinbosarlarining 2024-yil I va II yarim yillik ish rejaları ijrosi yuzasidan axborotlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil I yarim yillik ish rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Direktor o‘rinbosarlari (T. Abdullayev, A. Abdullayev, M. Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, shuningdek, tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarma boshliqlari Kadastr agentligining 2025-yil I yarim yillik ish rejasidagi tegishli topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli ta‘minlanishida qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

4. Tashkiliy nazorat va tahlil boshqarmasi (D.Shoniyazov) Agentlik tegishli tuzilmalari bilan birgalikda **har oy yakuni** bilan ish rejaning ijrosi yuzasidan ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot taqdim etib borsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmonida Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash haqida.

(Pulatov, Abdullayev, Mirmaksudov, Abdullayev, Sultanov, Shoniyazov, Pulatov)

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini og‘ishmay tashkil etish, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta‘minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish



maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlanib, unga ko‘ra Kadastr agentligiga aniq vazifa va topshiriqlar belgilandi.

Shunga asosan, ushbu Farmonda Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan 21 ta banddan iborat “Yo‘l xaritasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Agentlik “Yo‘l xaritasi” loyihasi muhokama etilib, unda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mas‘ullarga tegishli topshiriqlar belgilab berildi.

Kun tartibidagi beshichi masala bo‘yicha qilingan muhokamadan kelib chiqib, Hay‘at yig‘ilishi **qaror qiladi:**

1. Kadastr agentligi direktori F. Pulatovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni yuzasidan axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmonida Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash yuzasidan Yo‘l xaritasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Direktor o‘rinbosarlari (T. Abdullayev, A. Abdullayev, M. Mirmaksudov), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, shuningdek, tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarma boshliqlari** Kadastr agentligining “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi yuzasidan Yo‘l xaritasidagi tegishli topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda va sifatli ta‘minlanishida qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin.

4. **Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (D.Shoniyazov)** Agentlik tegishli tuzilmalari bilan birgalikda **har oy yakuni** bilan Yo‘l xaritasining ijrosi yuzasidan ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda natijasi bo‘yicha rahbariyatga axborot taqdim etib borsin.

5. Mazkur masala yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

**Kadastr agentligi direktori –
Hay‘at raisi**



F. Pulatov

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr
agentligining 2025-yil "___"-fevraldagi
_____ -sonli Hay'at yig'ilishi
bayoni 1-ilovasi bilan
TASDIQLANGAN

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining
2025-yil I yarim yillikka mo'ljallangan
I S H R E J A S I**

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
Ia. Agentlikning 2025-yil I yarim yilligida Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar				
1.	Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini <u>"Atrof-muhitni asrash va "vashil" iqtisodiyot yili"</u>da amalga oshirishga oid davlat dasturida Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta'minlash.	1. Davlat dasturida Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish va "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.	I yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (T.Abdullayev, Mirmaksudov, A.Abdullayev), markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
2.	<u>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2025-yillarda respublika hududlariga tashriflari</u> yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta'minlash.	1. Bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish va "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.	I yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (T.Abdullayev, Mirmaksudov, A.Abdullayev), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
3.	<p><u>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida</u> iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha 2018-2025-yillarda o'tkazilgan majlislar yakunlariga muvofiq tasdiqlangan bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni ijrosini ta'minlash.</p>	<p>1. Bayonnomalarda Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish va "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.</p>	I yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (T.Abdullayev, Mirmaksudov, A.Abdullayev), markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlari
4.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <u>"O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"</u> 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-405-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash. Jumladan,</p> <p>1. 2023–2026-yillarda Kadastr agentligi organlari va tashkilotlari faoliyatining asosiy prognoz ko'rsatkichlari (qarorning 1-ilovasi).</p> <p>2. 2023-2026-yillarda tizim tashkilotlari uchun o'lchash vositalari, zamonaviy kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minot va jihozlar xarid qilish (qarorning 2-ilovasi).</p> <p>3. 2023-2026-yillarda tizim tashkilotlari uchun bino va inshootlar qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash (qarorning 3-ilovasi).</p>	<p>1. Kadastr agentligiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yuqori turuvchi davlat organlariga axborot kiritish va "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.</p>	I yarim yillikda	Direktor o'rinbosarlari (T.Abdullayev, Mirmaksudov, A.Abdullayev), tegishli mas'ul markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida, Prezident Administratsiyasida, Vazirlar Mahkamasida, Oliy Majlisda hamda Prezidentning hududlarga tashrifi doirasida o'tkaziladigan yig'ilishlariga ma'lumot tayyorlash.	Davlat rahbari huzurida, Prezident Administratsiyasida, Vazirlar Mahkamasida, Oliy Majlisda hamda Prezidentning hududlarga tashrifi doirasida o'tkaziladigan yig'ilishlar uchun tizimda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlab rahbariyatga taqdim etish.	1 yarim yillikda	Direktorning o'rinbosari (A.Abdullayev), Yig'ma axborot tahlil boshqarmasi (Sultanov), Tashkiliy-nazorat va murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (Shoniyazov)
6.	89,7 ming kv.km. maydonda Aero va kosmik suratga olish ishlarini amalga oshirish.	1. Aerosuratga olish ishlarini bajarish uchun ruxsotnoma rasmiylashtirish; 2. Qoraqalpog'iston Respublikasida – 61,2 ming kv.km, Qashqadaryo viloyatida – 12,4 ming kv.km, Samarqand viloyatida – 6,7 ming kv.km, Surxondaryo viloyatida – 6,1 ming kv.km, Xorazm viloyatida – 3,3 ming kv.km aerosuratga olish ishlarini bajarish. 3. Bajarilgan ishlar natijasi yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
7.	39,9 ming kv.km maydonida raqamli ortofotoplanlar yaratish.	1. Aero va kosmik suratlarni qayta ishlash va dala sharoitida koordinatalar tizimiga bog'lash; 2. Qoraqalpog'iston Respublikasida – 25,6 ming kv.km, Jizzax viloyatida – 10,5 ming kv.km, Sirdaryo viloyatida – 3,8 ming kv.km. maydonda raqamli ortofotoplanlar yaratish.	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
		3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.		
8.	O'zbekiston Respublikasi hududida Milliy koordinatalar tizimini joriy etish.	<p>1. Milliy koordinatalar tizimini joriy etishda Samarqand shahridagi Ulug'bek observatoriyasi hududida Respublikaning "0" nuqtani yaratish hamda maxsus geodezik o'lchov ishlarini amalga oshirish.</p> <p>2. Buxoro – 159 ta, Qashqadaryo – 113 ta, Navoiy – 540 ta, Surxondaryo – 76 ta. Jami 888 ta GNSS o'lchov ishlarini amalga oshirish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
9.	Davlat nivelir tarmoqlarini rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turish maqsadida I sinf nivelirlash ishlarini amalga oshirish.	<p>1. Texnik loyiha tuzish va Kadastr agentligidan ro'yxatdan o'tkazish.</p> <p>2. "Navoiy-Mullali", "Kogon-Qarshi-Tolimarjon", "Mullali-Oqbaytal-Kokshatengiz", "Kokshatengiz-Kone-bugut", "Samarqand-Juma" "q.Bay-Sariqamish", "Sirdaryo-Xavas", "Xavas-Jizzax" obyektlarida I sinf nivelirlash ishlarini amalga oshirish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
10.	Doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog'ini kengaytirish (ularning sonini 50 tadan 130 tagacha yetkazish).	<p>1. Texnik loyihaga asosan, 18 ta doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari yordamchi geodezik punktlarini qurish va geodeziya o'lchovlarini amalga oshirish.</p> <p>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
11.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida davlat geodeziya tarmog'i punktlari yetarli bo'lmagan hududlarida geodezik punktlarni o'rnatish (zichlashtirish) ishlari.	<p>1. Jami 25 ta geodezik punkt o'rnatish va GNSS o'lchov ishlarini hamda 450 km IV sinf nivelirlash ishlarini amalga oshirish.</p> <p>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
12.	34,9 ming kv.km. maydonda topografik xaritalarni yangilash.	<p>1. Ortofotoplanlardan foydalanib dala kuzatuv ishlarini bajarish;</p> <p>2. Buxoro viloyatida – 23,9 ming kv.km, Navoiy viloyatida – 1,8 ming kv.km, Toshkent viloyatida – 4,7 ming kv.km, Xorazm viloyatida – 4,1 ming kv.km va Toshkent shahrida – 0,4 ming kv.km maydonda topografik xaritalarni yangilash.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
13.	162 ta ma'muriy-hududiy birliklar (shaharcha, qishloq, ovul) chegaralarini belgilash.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qoraqalpog'iston Respublikasida 20 ta, Andijon viloyatida – 9 ta, Buxoro viloyatida – 26 ta, Navoiy viloyatida – 20 ta Samarqand viloyatida – 53 ta, Xorazm viloyatida – 34 ta ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini dala sharoitida belgilash. 2. Chegara chizig'i tavsifi va chizmasini tayyorlash. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish. 	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
14.	12 ta tuman hududida yer resurslarini xatlovdan o'tkazish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tuman yer resurslarini xatlovdan o'tkazish bo'yicha reja-grafik tuzish; 2. Belgilangan rejaga asosan tuman (shahar)larda yer resurslarini xatlovdan o'tkazish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish. 	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullaev), Yer, bino va inshootlar kadastrini yuritishda hududlar bilan ishlash bo'limi (Isametdinov), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Respublika aerogeodeziya markazi (Omonov)
15.	6,6 ming nusxada topografik xaritalarini nashr qilish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tegishli topografik xaritalarni nashrga tayyorlash; 2. Topografik xaritalarini nashr qilish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish. 	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), "Kartografiya" DIChK (Ibragimov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
16.	250 ming nusxada umumgeografik va turli mavzuli xaritalar hamda boshqa poligrafik mahsulotlarni nashr qilish.	<p>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududlari xaritalari hamda o'quv kartografik qo'llanmalarni nashrga tayyorlash;</p> <p>2. Umumgeografik va turli mavzuli xaritalar hamda o'quv kartografik qo'llanmalarni nashr qilish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish.</p>	Har chorak yakuni bilan	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), "Kartografiya" DIChK (Ibragimov)
17.	Mahallalar chegarasiga aniqlik kiritish.	<p>1. 2 352 ta mahallalar chegaralariga aniqlik kiritish.</p> <p>2. Mahallalar chegaralarining sxematik xaritalarini va tavsiflarini ishlab chiqish.</p> <p>3. Yaratilgan materiallarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga taqdim etish.</p>	30-iyun	Direktor o'rinbosari (M.Mirmaksudov) FMMIR boshqarmasi (Zokirov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
18.	O'zbekiston Respublikasi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" Qonuni hamda Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son Farmoni ijrosini Kadastr agentligida ta'minlash.	<p>1. Kadastr agentligi tizimiga ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida taklif kiritish.</p> <p>2. Kadastr agentligi, uning hududiy boshqarmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlardagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilishda ochiq tanlov – shaffoflikni ta'minlab,</p>	I yarim yillikda	Direktor o'rinbosari (A. Abdullayev), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Xolov)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
		saralab olinayotganligini tahlil qilib borish. 3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vaziri nomenklaturasidagi rahbarlik lavozimlariga amaldagi zaxiraga olingan kadrlarni hrm.argos.uz elektron platformasiga kiritib chiqib, ularni faoliyat ko'rsatgichlarini monitoringini yuritish.		
Ib. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil I yarim yillik uchun tasdilangan ish rejasida Kadastr agentligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini tashkil etish ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha takliflari				
19.	1-ilova 14-band. Vazirlar Mahkamasi tomonidan Toshkent shahrining tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlari ijrosi bo'yicha Toshkent shahar hokimi, vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari rahbarlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida. <i>(Bosh vazir huzurida majlis)</i>	1. Materiallarni tayyorlash va umumlashtirish. 2. Umumlashtirilgan ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.	20-fevral 22-fevral	Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), Kadastr va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni muvofiqlashtirish boshqarmasi (Yuldashev), Yer, bino va inshootlar kadastrlarini yuritishda hududlar bilan ishlash bo'limi (Isametdinov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
20.	1-ilova 15-band. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi majlisida temir yo'l vokzali, temir yo'l stansiyasi va razyedlar nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish	1. Materiallarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 2. Bosh vazir kotibiyati rahbarida himoya qilish va "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.	20-fevral 22-fevral	Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
	<p>hamda yangi nom berish masalalarini ko'rib chiqish to'g'risida.</p> <p><i>(Komissiya majlisi) Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori</i></p>			
21.	<p>1-ilova 27-band.</p> <p>Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi majlisida foydali qazilma konlari nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish masalalarini ko'rib chiqish to'g'risida.</p> <p><i>(Komissiya majlisi) Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori</i></p>	<p>1. Materiallarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga hamda Tog'kon sanoati va geologiya vazirligiga kiritish.</p> <p>2. Bosh vazir kotibiyati rahbarida himoya qilishni ta'minlash va topshiriqni "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.</p>	<p>3-mart</p> <p>5-mart</p>	<p>Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)</p>
22.	<p>1-ilova 61-band.</p> <p>Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi majlisida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizim tashkilotlariga tegishli yer maydonlarida joylashgan tog' tizmalari va ulardagi tabiiy geografik obyektlar nomlarini davlat tili qoida va me'yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish masalalarini ko'rib chiqish to'g'risida.</p> <p><i>(Komissiya majlisi) Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori</i></p>	<p>1. Materiallarni tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga kiritish.</p> <p>2. Bosh vazir kotibiyati rahbarida himoya qilishni ta'minlash va topshiriqni "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olishni ta'minlash.</p>	<p>7-aprel</p> <p>9-mart</p>	<p>Direktor o'rinbosari (T.Abdullayev), YeMTZ, geodeziya va kartografiya bo'limi (Ergeshov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)</p>
23.	<p>1-ilova 64-band.</p> <p>Vazirlar Mahkamasi tomonidan Toshkent viloyatining tuman va shaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlari ijrosi bo'yicha Toshkent viloyati hokimi, vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari</p>	<p>1. Materiallarni tayyorlash va umumlashtirish.</p> <p>2. Umumlashtirilgan ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish.</p>	<p>4-aprel</p> <p>7-aprel</p>	<p>Direktor o'rinbosari (Mirmaksudov), Kadastr va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni muvofiqlashtirish boshqarmasi</p>

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ullar: Direktor o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma va tashkilotlar boshliqlari, mutaxassislar
	rahbarlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi to'g'risida. <i>(Rayosat majlisi)</i>			(Yuldashev), Yer, bino va inshootlar kadastrlarini yuritishda hududlar bilan ishlash bo'limi (Isametdinov), Davlat kadastrlari palatasi (Valiyev)
